

IQTISODIY KORRUPSIYA JINOYATLARINING AYRIM JIHATLARI VA SODIR ETILISHIGA SABAB BO'LADIGAN OMILLAR

Axrarov Baxrom Djabbarovich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti professori,
yuridik fanlar doktori

Narimov Ikrom Shermatovich

mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Mazkur maqolada iqtisodiy korrupsiya jinoyatlarining ayrim jihatlari hamda ushbu jinoyatlarning sodir etilishiga sabab bo'ladigan omillar tahlil qilingan. Shuningdek, jinoyatlarning davlat iqtisodiyoti va jamiyat rivojiga salbiy ta'siri va ularning oldini olish uchun amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar ko'rib chiqilgan. Korrupsiyaning latentligi, davlat mansabdor shaxslarining jinoyat sodir etishidagi omillar va yashirin iqtisodiyotga bo'lgan ta'sirlar haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash yo'lidagi islohotlar va jinoyatchilikni kamaytirishga qaratilgan davlat siyosatiga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy korrupsiya, yashirin iqtisodiyot, jinoyatchilik, davlat mansabdor shaxslari, korrupsiyaga qarshi kurash, O'zbekiston, korrupsiyaviy omillar, jinoyatchilik sabablari.

Abstract. This article analyzes various aspects of economic crimes related to corruption, along with the factors that contribute to their occurrence. The study evaluates the negative impact of these crimes on economic development and proposes preventive measures. Information on the latent nature of corruption crimes, the involvement of state officials, and the influence of the shadow economy is provided. Special attention is given to Uzbekistan's anti-corruption reforms and government policies aimed at reducing crime rates.

Keywords: economic corruption, shadow economy, crime, state officials, anti-corruption, Uzbekistan, corruption factors, crime causes.

Har qanday jamiyatda jinoyatchilik bozor munosabatlari va demokratik institutlarning shakllanishiga, barcha sohalarining ijtimoiy rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi illat sifatida qoralanadi. Bugungi kunda jamiyat iqtisodiyotiga putur yetkazuvchi jinoyatlarning sodir etilishi oqibatida davlatga yetkazilayotgan zarar ko'lamining tobora ortib borayot-ganligi iqtisodiy jinoyatlar sabablari va sharoitlarini yanada kengroq o'rganishni taqozo etmoqda.

BMT ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha har yili 1 trillion dollar pora berilar, 2,6 trillion dollar esa talon-toraj qilinar ekan [7]. Oxirgi yillarda yuz bergan pandemiya sharoitida iqtisodiy jinoyatlarning ommaviy tus olganligi har qanday davlat va jamiyat rivojiga o'ta salbiy ta'sir qilgani yana bir bor o'z tasdig'ini topdi. Iqtisodiy jinoyatlarning korrupsiyaviy tus olishi davlatlarning inqiroziga yuz tutishi xavfini tug'dira boshladi.

BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasi raisi Volkan Bozkiarning fikriga ko'ra, "iqtisodiy korrupsiya pandemiya davrida asosiy himoya

vositalari, qutqaruv uskunalari, zarur yordam va muhim xizmatlarning yetishmovchiligiga, minglab odamlarning olamdan o'tishiga sabab bo'ldi" [8].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev korrupsiyaviy xavf-xatarlarga munosib baho berar ekan, "bashariyat tarixiga nazar solsak, korrupsiya illati hatto eng qudratli va eng kuchli davlatlarni ham jar yoqasiga olib kelganiga va to'liq parokanda qilganiga guvoh bo'lamiz" [6], deb ta'kidlaydi.

O'zbekistonda 2023-yilda mansabdor shaxslar tomonidan talon-toraj qilish jinoyatlari natijasida keltirilgan zarar miqdori 1 trln 546 mlrd so'mni tashkil qilgan [3]. Korrupsiyani idrok etish indeksi (CPI) [2] da O'zbekiston 2023-yilda dunyoning 180 davlati orasida 121-o'rinni egallagan. Ushbu ma'lumotlar respublikamizda iqtisodiy korrupsiya bilan bog'liq ahvol jiddiyligicha qolayotganligini ko'rsatadi. Shu bois, Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat

boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonda mamlakat rivojlanishining bugungi bosqichida iqtisodiy korrupsiya O'zbekiston davlati va jamiyati taraqqiyoti uchun jiddiy xavf-xatarlardan biri ekanligi qayd etilgan [5].

Iqtisodiy korrupsiya jinoyatlari yuqori darajadagi latent jinoyatlar hisoblanadi [12]. Turli hisob-kitoblarga ko'ra korrupsiyaviy jinoyatlarning latentligi 90% dan 99% gacha chegarada deb baholanadi.

Qayd etilganlar iqtisodiy korrupsiya jinoyatlari jinoyatchilik bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini kuchaytirish, ushbu turdagi jinoyatchilikning sabablari va ularga imkon beruvchi shart-sharoitlarni aniqlash, bunday jinoyatlarning oldini olish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqishni taqozo etadi [13].

Iqtisodiy korrupsiyani o'rganish jinoyatchilik sabablarini aniqlash va ularga qarshi kurashish imkoniyatlarini yaratadi. O'rganishlar natijalari shuni ko'rsatadiki, davlat tizimida faoliyat yuritadigan mansabdor shaxslarning sodir etadigan jinoyatlarining aksariyati davlat mablag'larini o'zlashtirish, soliq yoki boshqa to'lovlardan qochish bilan sodir etilishi kuzatiladi. Yashirin iqtisodiyot natijasida davlat byudjetiga kelib tushadigan mablag'lardan mahrum bo'ladi va bu iqtisodiy inqiroz xavfi kuchayishiga sabab bo'ladi.

O'tkazilgan so'rovlar orqali olingan respondentlarning javoblari tahlil qilinganda eng katta iqtisodiy jinoyatchilik: savdo sohasida – 75%, qurilishda – 50%, sanoat ishlab chiqarish sohasida – 45% va qishloq xo'jaligi sohasida – 40% ni tashkil qilishi aniqlangan [10]. Yashirin iqtisodiyot yuqorida ta'kidlangan sohalaridan tashqari ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarida ham ko'p uchraydi. Ushbu sohalaridagi iqtisodiy talon-toraj qilish jinoyatlari va yashirin iqtisodiyotning kattaligi sohalarining davlat byudjeti bilan bog'liqligi va oylik maoshlarning pastligi bilan izohlanadi.

Yashirin iqtisodiyot jinoyatlari predmetlarini, asosan, mansabdor va mulkiy javobgar shaxslarga mulkka bo'lgan davlat vakolatlarining berilishi, turli xildagi moddiy boyliklarni boshqarish va tasarruf etish vakolatlarining berilishi, moliyaviy mablag'larning ishonib topshirilishi, norasmiy bozor munosabatlarining shakllanishi kabilar tashkil etadi. Mansabdorlik va mulkiy javobgarlik vakolatlariga ochko'zlik

bilan qarash, xo'jalarcha munosabatda bo'lish aldov yoki ko'zbo'yamachilik bilan davlat byudjeti mablag'larini yoki davlat byudjetiga tushishi lozim bo'lgan mablag'larni o'zlashtirishga sabab bo'ladi.

O'zlashtirish ochiqdan-ochiq yoki yashirin, niqoblangan usullar bilan sodir etilishi aniqlangan. Yashirin yoki niqoblangan usullarda sodir etish qalbaki hujjatlar rasmiylashtirilishi, bajarilmagan ishlarni bajarilgan qilib ko'rsatish, davlat xaridlarida haqiqiy narxlardan oshirib yozilishi va ortiq rasmiylashtirilgan mablag'larni o'zlashtirib yuborish, sifati past bo'lgan buyumlarning sifatini yuqori deb rasmiylashtirish orqali yuqori narxlardagi tovarlarga ajratilgan mablag'larni o'zlashtirib yuborish kabi harakatlar bilan sodir etilishi kuzatiladi.

Respublikasi Bosh prokuraturasining ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda 1804 ta jinoyat sodir etilib, 1778 nafar mansabdor shaxs, 2024-yilning olti oyida 2525 ta jinoyat sodir etilib, 2389 nafar mansabdor shaxs jinoiy javobgarlikka tortilgan. Ushbu jinoyatlar natijasida yetkazilgan zarar 879 mlrd so'mni tashkil etib, shundan 750 mlrd (85%) zarar undirilgan [1].

Jamiyatda vujudga keladigan yashirin iqtisodiyotning zararlari ko'lamini aniqlash juda murakkab bo'lib, uning barcha sohalarini aniqlash va ularni bir butunlikda hisoblash birmuncha qiyinchilik tug'diradi. Yashirin iqtisodiyot ko'lamini davlatning iqtisodiy ahvoli qay darajada ekanligidan ham aniqlash mumkin. Davlat iqtisodiy inqirozining kuchayib borishi yashirin iqtisodiyotning kuchayib borayotganligidan dalolat beradi.

Oxirgi yillarda iqtisodiy jinoyatlarning oldini olish borasida davlatimiz tomonidan bir qator jiddiy islohotlar amalga oshirilganligiga qaramay, davlat mablag'larini talon-toraj qilish jinoyatlari ko'payib borayotganligi hali bu borada muammolar yetarli ekanligidan, bajarilishi kerak bo'lgan vazifalar ko'pligidan dalolatdir.

Jinoiy javobgarlikka tortilgan mansabdor shaxslarning mansab mavqelariga ko'ra ko'rib chiqadigan bo'lsak, 2023-yilda ularning 14 nafari respublika miqyosidagi lavozimlarda, 100 nafari viloyatlar, 166 nafari tuman (shahar) miqyosida, 2024-yilning olti oyida 23 nafari respublika miqyosida, 223 nafari viloyat miqyosida, 2143 nafar tuman (shahar) miqyosidagi mansabdorlik lavozimlarida "xizmat" qilishgan [4].

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar va sud-huquq tizimini liberallashti-

rishning pirovard maqsadi inson huquqlari va manfaatlarini to'la-to'kis ta'minlanadigan huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilgan ekan, jinoyatchilik, shu jumladan uning bir ko'rinishi bo'lgan iqtisodiy jinoyatlar ana shu maqsadga erishishda to'siq bo'lib qolaveradi.

Ta'kidlash joizki, hozirgi jahon moliyaviy inqirozi yuz berayotgan bir sharoitda, mamlakatimizda korrupsiya va iqtisodiy jinoyatlarning oldini olish g'oyat muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Iqtisodiy korrupsiya sabablari tahlil qilingan tadqiqotlarda "o'g'rilik, talonchilik, bosqinchilik, tovlamachilik va firibgarlik jinoyatlariga xos umumiy sabablar jumlasiga: jamiyat taraqqiyotidagi qarama-qarshiliklar, iqtisodiyot taraqqiyotidagi nomaqbul rivojlanishlar; turli tanazzul holatlari; jamiyatdagi ijtimoiy-ma'naviy sohada kamchiliklar; tarbiyaviy ishlarning talab darajasida emasligi; odamlarga to'ralarcha munosabatda bo'lish, tovar-moddiy boyliklarning yetishmasligi, narx-navoning yuqoriligi, pulning qadrsizlanishi kabilar kiradi" [11], deb ta'kidlanadi.

Qasddan jinoyat sodir etuvchi har qanday shaxs jinoyat qilmishi orqali muayyan maqsadga erishishni ko'zlaydi, hatto jinoyat orqali siyosiy maqsadga erishiladi. Bu xususida 90 yillardan keyin ayrim sobiq sho'rolar mamlakatlaridagi

kriminogen vaziyat yuzasidan rus olimi V.N.Kudryavsev shunday deb yozgan: "Odam o'ldirish, odamlarni o'g'irlash, odamlarni sotib olish, terrorchilik, tuhmat qilish, hujjatlarni qalbakilashtirish va hokazo jinoyatlardan siyosiy maqsadga erishishning vositalari sifatida foydalanish hozirgi davrdagi haqiqatdir" [9].

Iqtisodiy korrupsiyaga qarshi umumiy qoralash muhiti shakllanmaganligi iqtisodiy jinoyatlar sodir etilishiga, uning miqyosi yanada kengayib, odatlarga aylanib borishiga, oqibatda esa, iqtisodiy inqirozga va xavfsizlikka tahdid soluvchi real xavf manbaiga aylanishiga olib keladi.

Respublikamizda iqtisodiy jinoyatlarning asosiy sabablari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: 1) jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyat darajasining pastligi; 2) ayrim davlat xizmatchilari moliyaviy ta'minotining yetarli darajada emasligi; 3) davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari faoliyati ustidan yetarlicha jamoatchilik nazorati mavjud emasligi; 4) davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatining lozim darajada ochiq va shaffof emasligi; 5) ortiqcha byurokratik to'siq va g'ovlarning mavjudligi; 6) davlat mablag'larining nazoratsizligi va iqtisodiy hisobotlarning yashirilishi; 7) qonunchilikdagi qarama-qarshiliklar, bo'shliqlar va boshqa omillar bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan manbalar

1. <https://president.uz/uz/lists/view/6935>
2. <https://www.transparency.org/en/cpi/2023/index/uzb>
3. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Rasmiy veb-sayti // <https://www.prokuratura.uz/#/newsview?id=9149>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Rasmiy veb-saytidan olingan 13.09.2024. // <https://president.uz/uz/lists/view/6935>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi PF-6257 son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/5495529>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 19-dekabrda Korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida yuksak xalqaro mukofotni topshirish marosimidagi nutqi. <https://yuz.uz/news>
7. BMT yangiliklari. 09.12.2023. <https://news.un.org/ru/story/2023/12/1447612>
8. BMT yangiliklari. 17.02.2021. <https://news.un.org/ru/story/2021/02/1396932>
9. Дубинин Н.П., Карпец И.И., Кудрявцев В.Н. Генетика, поведение, ответственность. – М.: Изд-во Политической литературы, 1998. – С.8
10. Закиров Э.З., Ахмадалиев А.У. Оценка масштабов и факторов теневой экономики в Узбекистане на основе экспертного опроса. <https://1economic.ru/lib/110102>
11. Kriminologiya: Darslik/ Z.S.Zaripov, A.S.Yakubov, G.A.Avanesov va boshq.; prof Z.S.Zaripov tahriri ostida. –T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2006. –B.278.
12. Кузнецова Н.Ф. (лауреат Государственной премии СССР, заслуженный деятель науки РФ) Материалы конференции «Россия и мировой опыт противодействия коррупции» (Москва, 23 – 24 июня 1999 г.). – М.: Спарк, 2000. — 203 с.
13. Рустамбаев М.Х. Предупреждение преступности в сфере экономики. – Т., 2008. – 340 б.